V.I. ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.05/2025.27.12.FM.11.01.M RAQAMLI ILMIY KENGASH

MATEMATIKA INSTITUTI

SULAYMONOV ILYOSXO‘JA ABDIRASUL O‘G‘LI

O‘ZGARMAS KOEFFITSIYENTLI SUBDIFFUZIYA TENGLAMALARI UCHUN TO‘G‘RI VA TESKARI MASALALAR

01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

TOSHKENT – 2026

UDK: 517.927 517.95

Fizika – matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on physical – mathematical sciences

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по физико – математическим наукам

**V.I. ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.05/2025.27.12.FM.11.01.M RAQAMLI ILMIY KENGASH**

MATEMATIKA INSTITUTI

SULAYMONOV ILYOSXO‘JA ABDIRASUL O‘G‘LI

O‘ZGARMAS KOEFFITSIYENTLI SUBDIFFUZIYA TENGLAMALARI UCHUN TO‘G‘RI VA TESKARI MASALALAR

01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

TOSHKENT – 2026

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, Fan va Innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2025.4.FM/T1392 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (резюме)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (http://kengash.mathinst.uz) va «Ziyonet» ta’lim axborot tarmog‘ida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Ashurov Ravshan Radjabovich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Durdiyev Durdimurod Qalandarovich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
	Baltayeva Umida Ismoilovna fizika-matematika fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**Farg‘ona davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika Instituti huzuridagi DSc.05/2025.27.12.FM.11.01.M raqamli Ilmiy kengashning 2026 yil « 10 » fevral soat 16:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 9-uy. Tel.: (+99871)-207-91-40, e-mail: uzbmath@umail.uz, Website: www.mathinst.uz).

Dissertatsiya bilan V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika Institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (220-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 9-uy. Tel.: (+99871)-207-91-40.

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil « 23 » yanvar kuni tarqatildi.
(2026 yil « 23 » yanvardagi 2-raqamli reestr bayonnomasi).

U.A.Roziqov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
f.-m.f.d., akademik

J.K.Adashev
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
f.-m.f.d., katta ilmiy xodim

A.A.Azamov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash huzuridagi
Ilmiy seminar raisi,
f.-m.f.d., akademik

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. So‘nggi o‘n yilliklarda kasr tartibli differensial tenglamalar turli xil anomal jarayonlarni modellashtirishda muhim matematik vosita sifatida keng qo‘llanila boshladi. Shu bois, ko‘plab olimlar bu turdagi tenglamalarni yechishning yangi yondashuvlarini ishlab chiqish va ularning yechim xususiyatlarini o‘rganishga alohida e’tibor qaratmoqdalar. Boshqa tomondan, kasr tartibli differensial tenglamalar uchun nafaqat boshlang‘ich-chegaraviy masalalar, balki koeffitsiyentlarni, manba funksiyasini, chegaraviy shartlarni hamda kasr tartibli hosilaning tartibini aniqlash bilan bog‘liq teskari masalalarni o‘rganish ham katta amaliy ahamiyatga ega. Ushbu dissertatsiya kasr tartibli differensial tenglamalar va tenglamalar sistemasi uchun boshlang‘ich-chegaraviy masalalarni, shuningdek, subdiffuziya tenglamalari uchun manba funksiyasini hamda kasr tartibli hosila tartibini aniqlashga doir teskari masalalarni o‘rganishga bag‘ishlangan.

Xususiy hosilali kasr tartibli tenglamalarni yechishni o‘rganish bilan bir qatorda tenglamaning koeffitsiyentlarini, uning o‘ng tomonini, chegaraviy funksiyani va kasr tartibli hosilaning tartibini aniqlashga oid teskari masalalarni yechishni o‘rganish juda muhim ahamiyatga ega. Teskari masalalarni o‘rganish bizga kasr tartibli tenglama bilan berilgan jarayonlarni o‘rganish, tahlil qilish va boshqarish imkoniyatlarini beradi. Manba funksiyasini aniqlashga oid teskari masalalar mexanika, seysmologiya, tibbiy tomografiya va geofizika kabi sohalardagi amaliy ehtiyojlar bilan bog‘liq. Shuningdek, kasr tartibli hosila tartibini aniqlashga oid teskari masalalar ham turli sohalarda katta amaliy ahamiyatga ega. Bunday masalalar orqali tizim yoki muhitdagi tarqalish jarayonining tabiati, ya’ni u odatiy yoki anomal diffuziya ekanligi aniqlanadi. Shuning uchun hosila tartibini aniqlash masalalari fizika, biologiya, kimyo, gidrologiya, materialshunoslik, hamda moliya matematikasi kabi fanlarda keng qo‘llanilib, murakkab jarayonlarning ichki tuzilishini chuqurroq tushunishga xizmat qiladi. Bunday masalalarning fizik mohiyati va amaliy ahamiyati ularni turli sohalarda o‘rganishga sabab bo‘lmoqda. Shuning uchun, kasr tartibli tenglamalar uchun to‘g‘ri va teskari masalalarning yechimlarini qurish maqsadli ilmiy tadqiqotlardan hisoblanadi.

Mamlakatimizda aniq va tabiiy fanlar, xususan, matematika, fizika, biologiya, geologiya sohalarini rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, kasr tartibli va xususiy hosilali differensial tenglamalar nazariyasini rivojlantirish muhim ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan. Chunki bu nazariya mexanika, elektronika, boshqaruv tizimlari, fiziologiya va biologik jarayonlarni tushunishda asosiy rol o‘ynaydi. Yuqorida ta’kidlanganidek, muhim yo‘nalishlar bo‘yicha xalqaro standartlar darajasida ilmiy tadqiqot olib borish, matematika fanining asosiy vazifasi va faoliyat yo‘nalishi etib belgilandi[1].

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-iyuldagi «Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi» gi № PQ-4387-son qarori.

Mamlakatimiz mutaxassislari tomonidan mazkur sohalarda salmoqli natijalar qo‘lga kiritilib, ular yuqoridagi farmon ijrosini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatimizda differensial tenglamalar va matematik fizika kabi muhim yo‘nalishlari bo‘yicha xalqaro miqyosda olib borilayotgan tadqiqotlar, fundamental tadqiqotlarning asosiy yo‘nalishi sifatida qaralayotgani quvonarlidir.

Mazkur dissertatsiya ishining predmeti va tadqiqot ob’yekti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi” haqidagi farmonlarida belgilangan vazifalariga mos keladi, 2017 yil 17-fevraldagi PQ-2789 “Fanlar Akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident qarori, 2018 yil 27 apreldagi “Innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliy joriy qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3682-sonli qarori va 2019 yil 9 iyuldagi “Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab quvvatlash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4387 sonli Prezident qarori hamda 2020 yil 7 maydagi “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4708 sonli Prezident qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur dissertatsiya Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. “Matematika, mexanika va informatika” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Kasr tartibli differensial tenglamalar va ular bilan bog‘liq bo‘lgan to‘g‘ri va teskari masalalar zamonaviy matematikaning faol tadqiqot sohasiga aylandi. Bu sohada Sh.O. Alimov, R.R.Ashurov, S.R. Umarov, M. Yamamoto, Z. Li, A.V. Psxu, M. Kirane, M. Ruzhansky, D.Q. Durdiyev, Yu.E. Fayziyev, Z.A. Sobirov, E.T. Karimov, B.X. Turmetov, Y. Zhang, X.T. Nguyn, A.S. Malik va boshqa ko‘plab matematik olimlarning salmoqli hissasi bor. Kasr tartibli differensial tenglamalar uchun boshlang‘ich-chegaraviy masalalarning yechimining mavjudligi va yagonaligi yuqoridagi mualliflarning ishlarida batafsil o‘rganilgan. Kasr tartibli hosila tartibini aniqlashga oid teskari masalalar subdiffuziya tenglamalari uchun ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. Kasr tartibni bevosita o‘lchaydigan asbob mavjud bo‘lmagani sababli, bu parametr odatda yechimga oid bilvosita kuzatuvlar asosida tiklanadi. 2019-yilgacha bo‘lgan natijalar keng sharhi Z. Li, Y. Liu va M. Yamamotolarning maqolasida berilgan. Bu maqolaning “Ochiq muammolar” (Open Problems) bo‘limida mualliflar mavjud tadqiqotlar yetarli emasligini ta’kidlab, barcha natijalar uzoq vaqt oralig‘idagi kuzatuvlarga tayanganini aytadilar va ma’lumot faqat bitta vaqt nuqtasida berilgan holatdagi teskari masalalarni o‘rganish muhimligini qayd etadilar.

Ko‘plab ishlarning aksariyati faqat teskari masalaning yagonaligini isbotlaydi.

Oʻxshash yondashuv X. Jing va M. Yamamoto tomonidan qoʻllanilgan, ular uchta parametrni: kasr tartib, potensial koeffitsient va boshlangʻich shartni bir vaqtda aniqlash masalasini koʻrib chiqishgan. Masalaning yechimining mavjudligini taʼminlash uchun koʻplab ishlarda turli qoʻshimcha shartlar taklif qilingan. Masalan, Sh.Alimov va R.Ashurov ishlarida teskari masalaning yagona yechimga ega boʻlishi uchun yetarli shartlardan foydalanishgan. Bundan tashqari, qoʻshimcha umumlashmalar aralash tipdagi tenglamalar, kasr toʻlqin tenglamalari va kasr psevdo-differensial sistemalar uchun ham oʻrganilgan. Shuningdek, R.Ashurov va Yu.Fayziyevlar subdiffuziya tenglamasida kasr tartib va manba funksiyasini bir vaqtda aniqlashga oid teskari masalani tahlil qilganlar. Ikki parametrli teskari masalalar dastlab, 2013-yilda S. Tatar va S. Ulusoy tomonidan bir oʻlchamli holatda oʻrganilgan boʻlib, bu yerda Laplas operatori xos qiymatlarining asimptotik xatti-harakati hal qiluvchi rol oʻynagan. Ularning asosiy natijasi bu parametrlarning yagonaligini aniqlashgan. Keyinchalik, 2020-yilda M.Yamamoto ushbu yagonalik natijalarini yuqori oʻlchamli chegaralangan sohalarga kengaytirdi. Yaqinda G. Li va boshqalar kasr tartibni bitta fazo–vaqt nuqtasidagi qoʻshimcha maʼlumotdan aniqlash masalasini oʻrgandilar.

Kasr tartibli differensial tenglamalar sistemalari boʻyicha tadqiqotlar ham sezilarli darajada rivojlandi. 2019-yilgacha boʻlgan natijalar batafsil koʻrib chiqilishi A. N. Kochubei ishlarida berilgan boʻlib, unda Green funksiyalar va chiziqli sistemalar uchun asosiy baholar olingan. Keyingi yillarda S. Umarov bir qator fundamental natijalarni eʼlon qildi, ular kasr tartibli differensial tenglamalar sistemalari uchun umumiy yechim formulalarini berdi. Shuningdek, S.Umarov ishlarida keltirilgan eng umumiy holatda vektor tartib (0,1) oraligʻidagi ixtiyoriy haqiqiy sonlardan iborat boʻlishi mumkin, bu esa klassik oddiy kasr differensial tenglamalar nazariyasini ham kengaytiradi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan Oliy taʼlim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi. Dissertatsiya tadqiqoti V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika institutida Oʻzbekiston Respublikasi Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligining F-FA-2021-424-sonli ilmiy tadqiqot grantining rejalashtirilgan mavzusiga muvofiq amalga oshirildi.

Tadqiqotning maqsadi subdiffuziya tenglamasi va tenglamalar sistemasi uchun boshlangʻich-chegaraviy, subdiffuziya tenglamalarining manba funksiyasini hamda kasr tartibli hosila tartibini topish boʻyicha teskari masalalarning klassik yechimlarini topishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Adamar kasr hosilali subdiffuziya tenglamasi uchun boshlangʻich–chegaraviy masalaning yagona yechimga ega ekanligini isbotlash va manba funksiyasini aniqlash;

Kaputo va Riman–Liuvill kasr hosilali subdiffuziya tenglamalari uchun kasr tartibni aniqlashga oid teskari masalalarning klassik maʼnodagi yagona yechimga ega ekanligini isbotlash;

Kaputo va Riman–Liuvill kasr hosilalari uchun subdiffuziya tenglamalari sistemasining boshlangʻich–chegaraviy masalasining yagona yechimga ega ekanligini isbotlash.

Tadqiqotning obyekti Kaputo, Riman-Liuvill va Adamar kasr hosilali subdiffuziya tenglamalari.

Tadqiqotning predmeti boshlang‘ich-chegaraviy masala, tenglamalarning o‘ng tomonini aniqlashning teskari masalalari va kasr tartibli hosila tartibini aniqlash masalalari.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda funksional analiz usullari, spektral nazariya va Furye usullari qo‘llaniladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Adamar kasr hosilali subdiffuziya tenglamasi uchun boshlang‘ich–chegaraviy masala va manba funksiyasini aniqlashga oid teskari masala yagona yechimga ega ekanligini isbotlangan;

Kaputo va Riman–Liuvill kasr hosilali subdiffuziya tenglamalari uchun kasr tartibni aniqlashga oid teskari masalalarning klassik ma’nodagi yagona yechimga ega ekanligini isbotlangan;

Kaputo va Riman–Liuvill kasr hosilalari uchun subdiffuziya tenglamalari sistemasining boshlang‘ich–chegaraviy masalasining yagona yechimga ega ekanligini isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari. Ushbu dissertatsiyada olingan natijalar va qo‘llanilgan usullar oliy o‘quv yurtlari magistrantlari va doktorantlari uchun bitiruv kursi sifatida o‘qitilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Natijalar funksional analiz, spektral nazariya va Furye usuli yordamida olingan. Olingan barcha natijalar matematik jihatdan to‘g‘ri.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, olingan ilmiy natijalar subdiffuziya tenglamalari uchun boshlang‘ich-chegaraviy va teskari masalalarni yanada chuqurroq tadqiq qilishda qo‘llanilishi mumkin.

Dissertatsiyaning amaliy ahamiyati shundan iboratki, olingan natijalar texnik, fizik va biologik jarayonlarni matematik modellashtirishda qo‘llanilishi mumkin.

Tadqiqot ishlarning joriy qilinishi. Subdiffuziya tenglamalari uchun to‘g‘ri va teskari masalalar bo‘yicha dissertatsiya ishida olingan natijalar asosida:

Kaputo kasr hosilali subdiffuziya tenglamalar sistemasi uchun boshlang‘ich chegaraviy masalalaning yechimlaridan 22-11-00064 raqamli «Geosferadagi dinamik jarayonlarni irsiyatni hisobga olgan holda modellashtirish» mavzusidagi xorijiy loyihada subdiffuziya tenglamalari uchun to‘g‘ri va teskari masalalarni tasniflashda foydalanilgan (Kosmofizika tadqiqotlari va radio to‘lqinlarining tarqalishi institutining 2025 yil 30 oktyabrdagi № 453-sonli ma'lumotnomasi, Rossiya Federatsiyasi). Ushbu ilmiy natijalar yordamida radonning to‘planish kameralaridagi diffuziya–konveksiya transporti jarayonini tavsiflovchi subdiffuziya modellari qurildi, bu esa radon konsentratsiyasining vaqt bo‘yicha evolyutsiyasini aniqlash va transport parametrlarini baholash imkonini berdi;

elliptik qismi Laplas operatoridan iborat bo‘lgan Kaputo kasr hosilali subdiffuziya tenglamalariga oid teskari masalalar yechimlaridan 125031904191-2 raqamli “Kasr va taqsimlangan tartibli differensial operatorlarga ega tenglamalar va sistemalar uchun chegaraviy masalalar va ularning qo‘llanishlari” mavzusidagi xorijiy loyihada turli fizik va biologik jarayonlarni matematik modellashtirishida qo‘llanilgan (Kabardin-Balkar ilmiy markazining Amaliy matematika va avtomatlashtirish institutining 2025 yil 6 noyabrdagi № 01-13/98-sonli ma'lumotnomasi, Rossiya Federatsiyasi). Ilmiy natijalarning qo‘llanilishi subdiffuziya va diffuziya–to‘lqin tenglamalari uchun teskari masalalarni yechimini topish va ularning turli fizik va biologik jarayonlarni matematik modellashtirishda qo‘llash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqotning asosiy natijalari 3 ta xalqaro va 1 ta respublika ilmiy anjumanlarida muhokama qilindi.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 11 ta ilmiy ishlar chop etilgan bo‘lib, shundan, 7 ta maqola O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda chop etilgan, shulardan 2 tasi xorijiy va 5 tasi respublika jurnallarida chop etilgan bo‘lib, ulardan 5 tasi SCOPUS ma’lumotlar bazalarida indekslangan va 4 tasi tezisdir.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to‘rtta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 104 bet.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, mavzu bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi, muammoning o‘rganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqot maqsadi, vazifalari, ob’ekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertasiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Dastlabki ma’lumotlar”** deb nomlangan birinchi bobi yordamchi xususiyatga ega bo‘lib, dissertatsiyani o‘qish qulay bo‘lishi uchun yaratilgan. Bu yerda yangi natijalar yo‘q, faqat kerakli ta’riflar va tasdiqlar to‘plangan.

Keling, birinchi bobdagi ba’zi kerakli ma’lumotlarni keltiraylik.

Hilbert fazosida abstrakt operator. $(\cdot,\cdot)$ skalyar ko’paytma va norma $\|\cdot\|$ aniqlangan H separabel Hilbert fazosi bo'lsin. Aytaylik, $A: H \to H$ operator H fazoda aniqlangan bo‘lib, o‘z-o‘ziga qo‘shma, quyidan chegaralangan, musbat aniqlangan bo‘lsin. Faraz qilaylik, A operator kompakt A^{-1} teskari operatorga ega. U holda u to‘la ortonormal $\{v_k\}$ xos vektorlar sistemasiga va ularga mos $\{\lambda_k\}$ musbat xos sonlar to‘plamiga ega bo‘ladi, ya’ni v_k vektorlar va λ_k sonlar $Av_k = \lambda_k v_k$ tenglikni qanoatlantiradi. Xos sonlarni qayta nomerlash yordamida ularni kamaymaydigan qilib nomerlab olamiz, ya’ni $0 < \lambda_1 \le \lambda_2 \cdots \to +\infty$.

Keling, H Hilbert fazosida A operatornig darajasi tushunchasini eslatib o‘taylik. τ ixtiyoriy haqiqiy son bo‘lsin. Biz H da A operatorning darajasini quyidagicha kiritamiz:

$$A^\tau h = \sum_{k=1}^{\infty} \lambda_k^\tau h_k v_k,$$

bu yerda $h_k=(h,v_k)$ lar $h\in H$ elementning Furye koeffitsiyentlari. Shubhasiz, ushbu operatorning aniqlanish sohasi quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$D(A^\tau)=\{h\in H:\sum_{k=1}^{\infty}\lambda_k^{2\tau}|h_k|^2<\infty\}.$$

Laplas operatorining o‘z-o‘ziga qo‘shma kengaytmasi. Biz yuqorida Hilbert fazosida abstrakt o‘z-o‘ziga qo‘shma operatorni ko‘rib chiqdik. Biz qo‘llagan usulda, A operator faqat to‘la ortonormal xos vektorlar sistemasiga ega bo‘lishi talab qilinganligi sababli, M. Ruzhansky va boshqalarning ishida berilgan har qanday elliptik operatorni A operator deb hisoblash mumkin. Masalan, $L_2(\Omega)$, $\Omega\subset\mathbb{R}^N$, ni H Hilbert fazosi. Aytaylik, A operator $L_2(\Omega)$ da $Ag(x)=-\Delta g(x)$ kabi aniqlangan, $D(A)=\{g\in C^2(\overline{\Omega}): g(x)=0,\ x\in\partial\Omega\}$ aniqlanish sohaga ega bo‘lsin. A operatorning $L_2(\Omega)$ dagi o‘z-o‘ziga qo‘shma kengaytmasini $\hat{A}$ bilan belgilaymiz.

Aytaylik, σ ixtiyoriy haqiqiy son bo‘lsin. $L_2(\Omega)$ fazoda $\hat{A}$ operatorning darajasini quyidagicha aniqlaymiz:

$$\hat{A}^\sigma g(x)=\sum_{k=1}^{\infty}\lambda_k^\sigma g_k v_k(x),\quad g_k=(g,v_k),$$

va aniqlanish sohasi quyidagi shaklga ega

$$D(\hat{A}^\sigma)=\{g\in L_2(\Omega):\sum_{k=1}^{\infty}\lambda_k^{2\sigma}|g_k|^2<\infty\}.$$

V.A. Il’inning teoremasi. Tenglamaning elliptik qismi Laplas operatori bo‘lganda, Furye usulida boshlang‘ich-chegaraviy masalalarning yechimlarining mavjudligini isbotlash uchun

$$\sum_{k=1}^{\infty}\lambda_k^\tau|h_k|^2,\quad \tau>\frac{N}{2},\tag{1}$$

ko‘rinishdagi qatorlarning yaqinlashuvchi ekanligini o‘rganish kerak bo‘ladi, bunda h_k lar $h(x)$ funksiyaning Furye koeffitsiyentlari. τ sonining butun qiymatlarida (1) qatorning yaqinlashishi uchun $h(x)$ funksiyaning qaysi $W_2^k(\Omega)$ klassik Sobolev fazolariga tegishligi bo‘lishlik shartlari V.A. Il’inning fundamental ishida ko‘rsatilgan. Ushbu shartlarni keltirish uchun biz $\overset{\circ}{W}{}_2^1(\Omega)$ sinfni kiritamiz. Ω sohada uzluksiz differensiallanuvchi va $\partial\Omega$ chegaraning atrofida nolga teng barcha funksiyalar to‘plamini $W_2^1(\Omega)$ ning normasi bo‘yicha yopilmasini belgilaymiz.

Demak, agar $h(x)$ funksiya quyidagi

$$h(x)\in W_2^{\left[\frac{N}{2}\right]+1}(\Omega)\ \text{ va } h(x),\ \Delta h(x),\ \cdots,\ \Delta^{\left[\frac{N}{4}\right]}h(x)\in\overset{\circ}{W}{}_2^1(\Omega),\tag{2}$$

shartlarni qanoatlantirsa, u holda (1) qator $\tau=\left[\dfrac{N}{2}\right]+1$ bo‘lganda yaqinlashuvchi bo‘ladi.

Dissertatsiyaning asosiy natijalari ikkinchi bobdan boshlanadi. Ushbu bob **“Adamar kasr tartibli hosilali subdiffuziya tenglamalari uchun to‘g‘ri va teskari masalalar”** deb nomlanadi.

Ushbu bobning birinchi bo‘limida H separable Hilbert fazosida Adamar kasr hosilali subdiffuziya tenglamasi uchun Koshi masala o‘rganildi.

1-masala. Aytaylik $\alpha \in (0,1)$ bo‘lsin. Quyidagi Koshi masalasini

$$\begin{cases} D_t^{\alpha} u(t) + Au(t) = f(t), \quad 1 < t \le T; \\ \lim\limits_{t\to 1+0} J_t^{1-\alpha} u(t) = \varphi, \end{cases} \tag{3}$$

qanoatlantiruvchi, hamda $D_t^{\alpha} u(x,t) \in C((1,T],H)$, $Au(x,t) \in C((1,T],H)$ xossalarga ega bo‘lgan $(\ln t)^{1-\alpha} u(x,t) \in C([1,T],H)$ funksiyani toping. Biz bu qidirilayotgan $u(x,t)$ funksiyani masalaning yechimi deb ataymiz. Bu yerda $f(t) \in C([1,T],H),$ va φ esa H fazoda berilgan uzluksiz funksiya.

1-teorema. *Aytaylik, $\varphi \in H$ va $f(t) \in C([1,T];D(A^{\varepsilon}))$ bo‘lsin, bu yerda $\varepsilon \in (0,1)$. U holda (3) Koshi masalasining yagona yechimi mavjud va u quyidagi qator ko‘rinishga ega bo‘ladi:*

$$u(x,t) = \sum_{k=1}^{\infty} \left[\varphi_k (\ln t)^{\alpha-1} E_{\alpha,\alpha}(-\lambda_k (\ln t)^{\alpha}) + \int_0^t (\ln \eta)^{\alpha-1} E_{\alpha,\alpha}(-\lambda_k (\ln \eta)^{\alpha}) f_k\left(\frac{t}{\eta}\right) d\eta \right] v_k, \tag{4}$$

va bu qator H da va barcha $t \in (1,T]$ lar uchun absolyut va tekis yaqinlashadi. Bu yerda φ_k, f_k lar mos ravishda, φ, $f(t)$ funksiyalarining Furye koeffitsientlaridir, masalan $\varphi_k = (\varphi, v_k)$.

Ushbu bobning ikkinchi bo‘limida (3) Koshi masalasidagi subdiffuziya tenglamasining o‘ng tomonini topish bo‘yicha teskari masalasi o‘rganildi.

2-masala. Aytaylik $\rho \in (0,1)$ bo‘lsin. (3) Koshi masalasini va quyidagi qo‘shimcha shartni

$$u(\tau) = \Psi, \tag{5}$$

qanoatlantiruvchi, hamda $D_t^{\alpha} u(t), Au(t) \in C((1,T],H)$ xossalarga ega bo‘lgan $(\ln t)^{1-\alpha} u(x,t) \in C([1,T],H)$ va $f \in H$ funksiyalar juftligini toping. Bu yerda ψ funksiya H fazoning elementi, τ esa $(1,T]$ segmentda berilgan ixtiyoriy fiksirlangan nuqta.

Bu teskari masalani yechish uchun, biz (3) Koshi masalasining (4) yechimiga (5) qo‘shimcha shartni qo‘llaymiz va Ψ_k orqali $\Psi_k = (\Psi, v_k)$ funksiyaning Furye koeffetsientlarini belgilaymiz. U holda quyidagi tenglikka ega bo‘lamiz:

$$\varphi_k (ln\tau)^{\alpha-1} E_{\alpha,\alpha}(-\lambda_k (ln\tau)^{\alpha}) + f_k (ln\tau)^{\alpha} E_{\alpha,\alpha+1}(-\lambda_k (ln\tau)^{\alpha}) = \Psi_k.$$

Biz bu tenglikdan f_k koeffitsientlarni quyidagiga teng bo‘ladi:

$$f_k = \frac{\Psi_k}{(ln\tau)^{\alpha} E_{\alpha,\alpha+1}(-\lambda_k (ln\tau)^{\alpha})} - \frac{\varphi_k (ln\tau)^{\alpha-1} E_{\alpha,\alpha}(-\lambda_k (ln\tau)^{\alpha})}{(ln\tau)^{\alpha} E_{\alpha,\alpha+1}(-\lambda_k (ln\tau)^{\alpha})}.$$

2-teorema. *Aytaylik $\varphi, \Psi \in D(A)$ bo‘lsin. U holda (3), (5) teskari masala yagona $\{u(t), f\}$ yechimga ega va u quyidagi qator ko‘rinishiga ega bo‘ladi:*

$$u(t) = \sum_{k=1}^{\infty} \left[\varphi_k (lnt)^{\alpha-1} E_{\alpha,\alpha}(-\lambda_k (lnt)^{\alpha}) + f_k (lnt)^{\alpha} E_{\alpha,\alpha+1}(-\lambda_k (lnt)^{\alpha}) \right] v_k, \tag{6}$$

bu yerda

$$f_k = \frac{\Psi_k}{(ln\tau)^\alpha E_{\alpha,\alpha+1}(-\lambda_k(ln\tau)^\alpha)} - \frac{\varphi_k(ln\tau)^{\alpha-1}E_{\alpha,\alpha}(-\lambda_k(ln\tau)^\alpha}{(ln\tau)^\alpha E_{\alpha,\alpha+1}(-\lambda_k(ln\tau)^\alpha)}$$

va

$$f = \sum_{k=1}^{\infty} f_k v_k.$$

Ushbu bobning ikkinchi bo'limida subdiffuziya tenglamasi uchun orqaga qaytish masalasi o'rganildi.

3-masala. Aytaylik $\alpha \in (0,1)$ bo'lsin. Quyidagicha masalani qaraylik:

$$\begin{cases} D_t^\alpha u(t) + Au(t) = f(t), \quad 1 < t \le T; \\ u(T) = \Phi, \quad T > 1, \end{cases} \tag{7}$$

bu yerda $f(t) \in C([1,T];H)$ funksiya va Φ element berilganlar. Bu masala *orqaga qaytish masalasi* deb nomlanadi.

Bu masalani yechishdan avval quyidagi muhim teoremalarni keltirib o'tamiz.

3-teorema. *Aytaylik* $\varphi \in H$ *va* $f(t) \in C([1,T];D(A^{1+\varepsilon}))$, *bu yerda* $\varepsilon \in (0,1)$. *U holda* ε *ga bog'liq shunday* C *o'zgarmas son mavjudki quyidagi baho o'rinli bo'ladi*

$$\| u(T) \|_2 \le C(lnT)^{-2(\alpha+1)} \| \varphi \| + C_\varepsilon \max_{t\in[1,T]} \| f(t) \|_{1+\varepsilon}.$$

Bu yerda $\varphi \in H$ element (3) masaladagi boshlang'ich shartda keltirilgan element.

4-teorema. *Aytaylik* $f(t) \equiv 0$ *bo'lsin. U holda ixtiyoriy* $\Phi \in D(A^2)$ *elementlar uchun shunday* $C_1, C_2 > 0$ *o'zgarmas sonlar mavjudki, quyidagi tengsizliklar o'rinli bo'ladi*

$$C_1 \lim_{t\to 1+0} \| J_t^{1-\alpha} u(t) \| \le \| u(T) \|_2 \le C_2 \lim_{t\to 1+0} \| J_t^{1-\alpha} u(t) \|.$$

Endi bu teoremalardan foydalanib orqaga qaytish masalasi uchun quyidagi asosiy natijani keltiramiz.

5-teorema. *Aytaylik* $f(t) \in C([1,T];D(A^{1+\varepsilon}))$ *bo'lsin, bu yerda* $\varepsilon > 0$. *U holda ixtiyoriy* $\Phi \in D(A^2)$ *uchun (7) masala yagona yechimga ega. Bundan tashqari shunday o'zgarmas* $C > 0$ *son topilib, quyidagi baho o'rinli bo'ladi*

$$\lim_{t\to 1+0} \| J_t^{1-\alpha} u(t) \| \le C(\| \Phi \|_2 + \max_{t\in[1,T]} \| f \|_{1+\varepsilon}).$$

Uchinchi bob **"Mittag-Leffler funksiyasining yangi xossalari va vaqt bo'yicha kasr tartibli hosila tartibini aniqlash bo'yicha teskari masalalar"** deb nomlanadi.

Ushbu bobning birinchi bo'limida Mittag-Leffler funksiyasining kichik argumantlarda parametr bo'yicha monotonligi o'rganildi va uning darajani aniqlash bo'yicha teskari masalalarga tadbiqlari keltirildi.

6-teorema. *Aytaylik* $\rho_0 \in (0,1)$ *bo'lsin. U holda ixtiyoriy* $t \in \left(0, \min\left(\frac{1}{2^{\frac{1}{\rho_0}}}, \frac{1}{e^{\frac{7}{2}}}\right)\right]$ *lar uchun barcha* $\rho \in [\rho_0, 1]$ *larda ushbu* $E_\rho(-t^\rho)$ *Mittag-*

Leffler funksiyasi monoton o'suvchi bo'ladi.

7-teorema. *Aytaylik* $\rho_0 \in (0,1)$ *bo'lsin. U holda ixtiyoriy* $t \in \left(0, \min\left(\frac{1}{2^{\frac{1}{\rho_0}}}, \frac{1}{e^{\frac{13}{6}}}\right)\right]$ *lar uchun barcha* $\rho \in [\rho_0, 1]$ *larda ushbu* $t^{\rho-1}E_{\rho,\rho}(-t^{\rho})$ *Mittag-Leffler funksiyasi monoton kamayuvchi bo'ladi.*

Shu o'rinda muhim eslatmani keltirib o'tamiz. Agar subdiffuziya tenglamasida kasr hosila Kaputo ma'nosida bo'lsa, u holda kasr hosila tartibini aniqlash bo'yicha teskari masalani hal etish uchun biz 6-teoremadan foydalanimiz. Agar subdiffuziya tenglamasida kasr tartibli hosila Riman-Liuvill ma'nosida bo'lsa, u holda kasr hosila tartibini aniqlash bo'yicha teskari masalani hal etish uchun 7-teoremadan foydalanamiz.

Ushbu bobning ikkinchi bo'limida elliptik qismi kasr tartibli Laplas operatori bo'lgan Kaputo kasr hosilali subdiffuziya tenglamasida bir vaqtda Kaputo kasr hosila va Laplas operatorini tartibini aniqlash bo'yicha teskari masala o'rganildi.

4-masala. Aytaylik $\rho, \sigma \in (0,1]$ bo'lsin. Quyidagi masalani

$$\begin{cases} D_t^{\rho}u(x,t) + (-\Delta)^{\sigma}u(x,t) = 0, \quad x \in \Omega, \quad 0 < t \le T, \\ u(x,t) = 0, \quad x \in \partial\Omega, \quad 0 < t \le T, \\ u(x,0) = \varphi(x), \quad x \in \Omega, \end{cases} \tag{8}$$

va

$$|(u(x,t_0), v_k(x))| = d_0, \quad |(u(x,t_1), v_k(x))| = d_1, \tag{9}$$

qo'shimcha shartni qanoatlantiruvchi, hamda $D_t^{\rho}u(t),\ Au(t) \in C((0,T];H)$ xossalarga ega bo'lgan $u(t) \in AC([0,T];H)$ funksiya va $\rho,\ \sigma$ parametrlarni toping. Bu yerda $\varphi(x) \in L_2(\Omega)$ berilgan funksiya, $t_0 \ne t_1, t_0, t_1 \in (0,T]$ va d_0, d_1 berilgan musbat sonlar. Shuningdek $v_k(x)$ bu Laplas operatorining Dirixle chegaraviy sharti bilan olingandagi k - xos funksiyasi.

Biz (8)-(9) teskari masalani yechish uchun, (8) masalaning yechimidan foydalanamiz. (8) masala yechimni keltirishdan avval quyida muhim bo'lgan tuhusnchani keltirib o'tamiz:

Aytaylik M *fikserlangan son bo'lsin. Berilgan funksiya* $f \in I_M(\Omega)$ *sinfga tegishli deyiladi agar quyidagi ikkita shartni qanoatlantirsa*

1. (2) shartni qanoatlnatirsin,

2. $\|(-\Delta)^{\frac{1}{2}\left([\frac{N}{2}]+1\right)} f\|_{L_2(\Omega)} \le M.$

Endi (8) masala yechimini keltiramiz.

Aytaylik $\varphi(x) \in I_M(\Omega)$ *bo'lsin. U holda (8) masala yagona yechimga ega va u quyidagi qator ko'rinishida bo'ladi:*

$$u(x,t) = \sum_{k=1}^{\infty} \varphi_k E_{\rho}(-\lambda_k^{\sigma} t^{\rho}) v_k(x), \tag{10}$$

bu yerda φ_k *lar* $\varphi(x)$ *funksiyaning Furye koeffitsiyentlari.*

(10) yechimni (9) qo’shimcha shartga olib borib biz quyidagi tengliklarga ega bo‘lamiz:

$$\begin{cases} F_1(\rho,\sigma) = E_\rho(-\lambda_k^\sigma t_0^\rho) - \dfrac{d_0}{|\varphi_1|} = 0, \\ F_2(\rho,\sigma) = E_\rho(-\lambda_k^\sigma t_1^\rho) - \dfrac{d_1}{|\varphi_1|} = 0. \end{cases}$$

Quyidagicha begilashni kiritamiz:

$$F(\rho,\sigma) = \begin{bmatrix} E_\rho\left(-\lambda_k^\sigma t_0^\rho\right) \\ E_\rho\left(-\lambda_k^\sigma t_1^\rho\right) \end{bmatrix},$$

bu yerda $t_1, t_2 > 0$, $t_1 \neq t_2$, $\sigma \in (0,1)$, va $\rho \in [\rho_0, 1]$, $\rho_0 > 0$. Endi quyidagi teorema keltiramiz:

8-teorema. *Aytaylik $\lambda_k > 1$ Laplas operatorining k-xos soni bo‘lsin. U holda shunday musbat $T_1 = T_1(\lambda_k, \rho_0) > 0$ topilib, barcha $t_1 > T_1$ va $t_2 > T_1$ larda (8),(9) ikki parametrli teskari masala yagona $\{u(x,t), \rho, \sigma\}$ yechimga ega bo‘lishi uchun $\left(\dfrac{d_0}{|\varphi_1|}, \dfrac{d_1}{|\varphi_1|}\right)$ lar $F(\rho,\sigma)$ funksiyaning qiymatlar sohasiga tegishli bo‘lishi zarur va yetarli.*

Ushbu bobning uchinchi bo‘limida elliptik qismi kasr tartibli Laplas operatori bo‘lgan Riman-Liuvill kasr hosilali subdiffuziya tenglamasida bir vaqtda Kaputo kasr hosila va Laplas operatorini tartibini aniqlash bo‘yicha teskari masala o‘rganildi.

5-masala. Aytaylik $\rho, \sigma \in (0,1]$ bo‘lsin. Quyidagi masalani

$$\begin{cases} \partial_t^\rho u(x,t) + (-\Delta)^\sigma u(x,t) = 0, \quad x \in \Omega, 0 < t \le T, \\ Bu(x,t) \equiv \dfrac{\partial u(x,t)}{\partial n} = 0, \quad x \in \partial\Omega, 0 < t \le T, \\ \lim\limits_{t \to 0} J_t^{\rho-1} u(x,t) = \varphi(x), \quad x \in \overline{\Omega}, \end{cases} \tag{11}$$

va

$$|(u(x,t_0), v_1(x))| = d_0, \quad |(u(x,t_1), v_2(x))| = d_1, \tag{12}$$

qo‘shimcha shartni qanoatlantiruvchi, hamda $\partial_t^\rho u(t), Au(t) \in C((0,T];H)$ xossalarga ega bo‘lgan $t^{1-\rho}u(t) \in C([0,T];H)$ funksiya va ρ, σ parametrlarni toping. Bu yerda $\varphi(x) \in L_2(\Omega)$ berilgan funksiya, $t_0 \neq t_1, t_0, t_1 \in (0,T]$ va d_0, d_1 berilgan musbat sonlar. Shuningdek $v_k(x)$ lar bu Laplas operatorining Neyman chegaraviy sharti bilan olingandagi k - xos funksiyalari.

Biz (11)-(12) teskari masalani yechish uchun, (11) masalaning yechimidan foydalanamiz.

Aytaylik $\varphi(x) \in I_M(\Omega)$ bo‘lsin. U holda (11) masala yagona yechimga ega:

$$u(x,t)=\sum_{k=1}^{\infty}\varphi_k t^{\rho-1}E_{\rho,\rho}(-\lambda_k t^{\rho})v_k(x), \tag{13}$$

bu yerda φ_k lar $\varphi(x)$ funksiyaning Furye koeffitsiyentlari.

(13) yechimni (12) qo'shimcha shartga olib borib biz quyidagi tengliklarga ega bo'lamiz (e'tibor bering $\lambda_1=0$):

$$\begin{cases} |\varphi_1|\dfrac{t_0^{\rho-1}}{\Gamma(\rho)}-d_0=0, \\ |\varphi_1|t_1^{\rho-1}E_{\rho,\rho}(-\lambda_2^{\sigma}t_1^{\rho})-d_1=0. \end{cases}$$

Bu sistemadagi birinchi tenglikdan ρ parametrni aniqlab ikkinchi tenglikka olib borib qo'yamiz va undan σ parametrni topamiz. Bu teskari masala uchun quyidagi asosiy natijani keltiramiz.

9-teorema. *Aytaylik $\lambda_2>1$ Laplas operatorining ikkinchi xos soni bo'lsin. U holda ixtiyoriy $t_0>1$ va $t_1>1$ lar uchun, (11),(12) teskari masala yagona $\{u(x,t),\rho,\sigma\}$ yechimga ega bo'lishi uchun d_0 va d_1 quyidagi tengsizliklarni qanoatlantirishi zarur va yetarli:*

$$\frac{d_0}{|\varphi_1|}<1, \quad \frac{d_1}{|\varphi_1|}<t_1e^{-\lambda_2 t_1}.$$

Ushbu bobning to'rtinchi bo'limida elliptik qismi Laplas operatori bo'lgan Kaputo kasr hosilali subdiffuziya tenglamasida kasr hosila tartibini bitta fazo va vaqt nuqtasida qo'shimcha shart berish orqali aniqlash bo'yicha teskari masala o'rganildi.

6-masala. Aytaylik $\rho\in(0,1)$ bo'lsin. Quyidagi boshlang'ich chegaraviy masalani

$$\begin{cases} D_t^{\rho}u(x,t)-\Delta u(x,t)=0, \quad x\in\Omega, \quad 0<t\le T, \\ u(x,t)|_{\partial\Omega}=0, \\ u(x,0)=\varphi(x), \quad x\in\Omega, \end{cases} \tag{14}$$

va

$$u(x_0,t_0)=d_0, \tag{15}$$

qo'shimcha shartni qanoatlantiruvchi, hamda $D_t^{\rho}u(t),\ Au(t)\in C((0,T];H)$ xossalarga ega bo'lgan $u(t)\in AC([0,T];H)$ funksiya va ρ parametrlarni toping. Bu yerda $\varphi(x)\in L_2(\Omega)$ berilgan funksiya, $x_0\in\Omega$, $t_0\in(0,T]$ va d_0 berilgan sonlar.

Bu teskari masalani yechishda biz (14) masalaning yechimidan foydalanamiz.

Aytaylik $\varphi(x)\in I_M(\Omega)$ bo'lsin. U holda (14) masala yagona yechimga ega va u quyidagi qator ko'rinishida bo'ladi:

$$u(x,t)=\sum_{k=1}^{\infty}\varphi_k E_{\rho}(-\lambda_k t^{\rho})v_k(x), \tag{16}$$

bu yerda φ_k lar $\varphi(x)$ funksiyaning Furye koeffitsiyentlari.

(16) yechimni (15) tenglikka olib borib biz quyidagi tenglikka ega bo'lamiz:

$$G(\rho)=\sum_{k=1}^{\infty}\varphi_k E_\rho(-\lambda_k t_0^\rho)v_k(x_0),$$

Teskari masala yechimi haqidagi asosiy natijani keltirishdan avval quyidagi qatorni tekis yaqinlashuvchiligini ko‘rib o‘tamiz:

$$\sum_{k=1}^{\infty}\varphi_k v_k(x)\frac{d}{d\rho}E_\rho(-\lambda_k t^\rho), \tag{17}$$

Bunda quyidagi Lemma o‘rinli:

1-lemma. *Aytaylik* $\rho_0\in(0,1)$ *va* $t_1>0$ *bo‘lsin. Agar* $\varphi(x)\in I_M(\Omega)$ *bo‘lsa, u holda (17) qator barcha* $x\in\overline{\Omega}, t\in[t_1,T], \rho\in[\rho_0,1]$ *lar bo‘yicha tekis yaqinlashadi.*

Bu lemmadan quyidagi natija kelib chiqadi:

1-natija. *Aytaylik* $\rho_0\in(0,1)$ *va* $t_1>0$ *bo‘lsin. U holda ixtiyoriy* $\varepsilon>0$ *uchun, shunday* $n_0=n_0(\varepsilon,M,\rho_0,t_1)$ *mavjudki, barcha* $x\in\overline{\Omega}, t\in[t_1,T], \rho\in[\rho_0,1]$ *va* $\varphi(x)\in I_M(\Omega)$ *lar uchun quyidagi tengsizlik o‘rinli:*

$$\sum_{k=n_0+1}^{\infty}\left|\varphi_k v_k(x)\frac{d}{d\rho}E_\rho(-\lambda_k t^\rho)\right|<\varepsilon. \tag{18}$$

Bu yerda n_0 son (18) tengsizlik bajariladigan eng kichik son.

Endi asosiy natijani keltirib o‘tamiz.

10-teorema. *Aytaylik* $\varepsilon>0$ *fikserlangan son va* $t_0\in\left(0,\min\left(\frac{1}{2^{1/\rho_0}},\frac{1}{e^{7/2}}\right)\right]$ *bo‘lsin.* $n_0=n_0(\varepsilon,M,\rho_0,t_0)$ *ni 1-natijadagi kabi belgilaymiz. Faraz qilamiz* $x_0\in\Omega$ *uchun* $v_k(x)$ *va* $\varphi(x)\in I_M(\Omega)$ *ning Furye koeffitsiyentlari* φ_k *quyidagi shartlarni qanoatlantirsin:*

1. $\varphi_k\ge 0$ *va* $v_k(x_0)\ge 0$ *barcha* $k=1,2,\ldots,n_0$;
2. φ_{k_0} *va* $v_{k_0}(x_0)$ *biror* $k_0\in\{1,2,\ldots,n_0\}$ *uchun quyidagi tengsizlikni qanoatlantirsin*

$$\varphi_{k_0}v_{k_0}(x_0)>\frac{\varepsilon}{M_{k_0}},$$

bu yerda $M_{k_0}=\frac{d}{d\rho}E_\rho(-\lambda_{k_0}t_0^\rho)$.

U holda chiziqsiz $G(\rho)$ *funksiya barcha* $\rho\in[\rho_0,1]$ *bo‘yicha monoton o‘suvchi bo‘ladi. Shuningdek, (14), (15) teskari masala yagona yechimga ega bo‘lishi uchun quyidagi shart bajarilishi zarur va yetarli*

$$d_0\in[G(\rho_0),G(1)].$$

Dissertatsiyaning **to‘rtinchi bobi “Vektorli kasr tartibli hosilali parabolik tenglamalar sistemasining yechimi”** deb nomlanadi.

Ushbu bobning birinchi bo‘limida Kaputo kasr hosilali subdiffuziya tenglamalar sistemasida kasr hosilalar tartibi ixtiyoriy $\beta_j\in(0,1]$ bo‘lgan hol uchun boshlang‘ich-chegaraviy masala o‘rganildi.

7-masala. Quyidagi Koshi masalasini

$$D_t^{\beta}U(t,x)+\mathbb{A}(D)U(t,x)=H(x,t),\quad t>0,\, x\in\mathbb{R}^n, \tag{19}$$

$$U(0,x)=\Phi(x),\quad x\in\mathbb{R}^n, \tag{20}$$

shuningdek,

$$U(t,x)\in\mathbf{C}([0,T]\times\mathbb{R}^n),\quad D_t^{\beta}U(t,x)\,,\mathbb{A}(D)U(t,x)\in\mathbf{C}((0,T]\times\mathbb{R}^n),$$

shartlarni qanoatlantiruvchi $u_j(t,x)\in L_2^{q_j}(\mathbb{R}^n)$, $t\in(0,T]$, $j=1,\dots,m$ funksiyalarni toping. Bu yerda $H(t,x)$ va $\Phi(x)$ berilgan uzluksiz funksiyalar. $\mathbb{A}(D)$ esa quyidagicha aniqlangan matritsa

$$\mathbb{A}(D)=\begin{bmatrix} A_{1,1}(D) & 0 & \dots & 0\\ A_{2,1}(D) & A_{2,2}(D) & \dots & 0\\ \dots & \dots & \dots & \dots\\ A_{m,1}(D) & A_{m,2}(D) & \dots & A_{m,m}(D)\end{bmatrix}.$$

p^* orqali ushbu $p^*=\max\limits_{1\le j\le m}\{l_{j,j}\}$, ifodani belgilaymiz. Ya'ni diagonalda joylashgan differensial operatorlarning eng katta darajasi. Bu masala uchun quyidagicha asosiy natijani keltiramiz.

11-teorema. *Aytaylik* $\tau>\dfrac{n}{2}$ *va* $\varphi_i(x)\in L_2^{\tau+p^*-l_{i,i}}(\mathbb{R}^n)$, $i=1,\dots,m$ *va* $h_i(t,x)\in L_2^{\tau+p^*-l_{i,i}}(\mathbb{R}^n)$, $i=1,\dots,m$ *bo'lsin. U holda (19),(20) Koshi masalasining yechimi mavjud va yagona.*

Ushbu bobning ikkinchi bo'limida Riman-Liuvill kasr hosilali subdiffuziya tenglamalar sistemasida kasr hosilalar tartibi ixtiyoriy $\beta_j\in(0,1]$ bo'lgan hol uchun boshlang'ich-chegaraviy masala o'rganildi.

8-masala. Quyidagi Koshi masalasini

$$\partial_t^{\beta}U(t,x)+\mathbb{A}(D)U(t,x)=H(x,t),\quad t>0,\, x\in\mathbb{R}^n, \tag{21}$$

$$\lim_{t\to0}\partial_t^{\beta-1}U(0,x)=\Phi(x),\quad x\in\mathbb{R}^n, \tag{22}$$

shuningdek,

$$U(t,x)\in\mathbf{C}([0,T]\times\mathbb{R}^n),\partial_t^{\beta}U(t,x)\,\text{and}\,\mathbb{A}(D)U(t,x)\in\mathbf{C}((0,T]\times\mathbb{R}^n),$$

shartlarni qanoatlantiruvchi $u_j(t,x)\in L_2^{q_j}(\mathbb{R}^n)$, $t\in(0,T]$, $j=1,\dots,m$ funksiyalarni toping. Bu yerda $H(t,x)$ va $\Phi(x)$ berilgan uzluksiz funksiyalar. $\mathbb{A}(D)$ esa quyidagicha aniqlangan matritsa

$$\mathbb{A}(D)=\begin{bmatrix} A_{1,1}(D) & 0 & \dots & 0\\ A_{2,1}(D) & A_{2,2}(D) & \dots & 0\\ \dots & \dots & \dots & \dots\\ A_{m,1}(D) & A_{m,2}(D) & \dots & A_{m,m}(D)\end{bmatrix}.$$

p^* orqali ushbu $p^*=\max\limits_{1\le j\le m}\{l_{j,j}\}$, ifodani belgilaymiz. Ya'ni diagonalda joylashgan differensial operatorlarning eng katta darajasi. Bu masala uchun quyidagicha asosiy natijani keltiramiz.

11-teorema. *Aytaylik* $\tau > \dfrac{n}{2}$ *va* $\varphi_i(x) \in L_2^{\tau+p^*-l_{i,i}}(\mathbb{R}^n)$, $i=1,\ldots,m$ *va* $h_i(t,x) \in L_2^{\tau+p^*-l_{i,i}}(\mathbb{R}^n)$, $i=1,\ldots,m$ *bo'lsin. U holda (21),(22) Koshi masalasining yechimi mavjud va yagona.*

XULOSA

Ushbu dissertatsiya kasr tartibli subdiffuziya tenglamalari uchun to'g'ri va teskari masalalarni o'rganishga bag'ishlangan. Ushbu masalalarni yechishning asosiy usuli klassik Furye usulidir.

Tadqiqotning asosiy natijalari quyidagilardan iborat:

1. H separable Gilbert fazosida Adamar kasr tartibli subdiffuziya tenglamasi uchun boshlang'ich chegaraviy masala hamda manba funksiyasini aniqlash bo'yicha teskari masala o'rganildi. Yechim Furye usuli orqali qurildi hamda yechimning mavjudligi va yagonaligi isbotlandi.

2. H separable Gilbert fazosida Adamar kasr tartibli subdiffuziya tenglamasi uchun orqaga qaytish masalasi o'rganildi. Bu masala yechimining mavjudligi va yagonaligi isbotlandi hamda koersiv baholar olindi.

3. Elliptik qismi kasr tartibli Laplas operatori bo'lgan Kaputo kasr hosilali subdiffuziya tenglamasi uchun N o'lchovli sohada kasr tartibli hosila tartibini hamda Laplas operatori tartibini aniqlashga doir teskari masala o'rganilgan. Teskari masala yechimining mavjudligi va yagonaligi isbotlangan.

4. Elliptik qismi kasr tartibli Laplas operatori bo'lgan Riman-Liuvill kasr hosilali subdiffuziya tenglamasi uchun N o'lchovli sohada kasr tartibli hosila tartibini hamda Laplas operatori tartibini aniqlashga doir teskari masala o'rganilgan. Teskari masala yechimining mavjudligi va yagonaligi isbotlangan.

5. Elliptik qismi Laplas operatori bo'lgan Kaputo kasr hosilali subdiffuziya tenglamasi uchun N o'lchovli sohada kasr tartibli hosila tartibini bitta nuqtada qo'shimcha shart berish orqali aniqlashga doir teskari masala o'rganilgan. Teskari masala yechimining mavjudligi va yagonaligi isbotlangan.

6. Kaputo kasr hosilali subdiffuziya tenglamalar sistemasida kasr hosilalar tartibi ixtiyoriy $\beta_j \in (0,1]$ bo'lgan hol uchun boshlang'ich-chegaraviy masala o'rganildi. Bunda yechim Furye va Laplas almashtirishlari orqali qurildi hamda yechimning mavjudlik va yagonaligi haqidagi teorema isbotlandi.

7. Riman-Liuvill kasr hosilali subdiffuziya tenglamalar sistemasida kasr hosilalar tartibi ixtiyoriy $\beta_j \in (0,1]$ bo'lgan hol uchun boshlang'ich-chegaraviy masala o'rganildi. Bunda yechim Furye va Laplas almashtirishlari orqali qurildi hamda yechimning mavjudlik va yagonaligi haqidagi teorema isbotlandi.

SCIENTIFIC COUNCIL AWARDING OF THE SCIENTIFIC DEGREES DSc.05/2025.27.12.FM.11.01.M AT V.I. ROMANOVSKIY INSTITUTE OF MATHEMATICS

INSTITUTE OF MATHEMATICS

SULAYMONOV ILYOSKHUJA ABDIRASUL OGLI

FORWARD AND INVERSE PROBLEMS FOR SUBDIFFUSION EQUATIONS WITH CONSTANT COEFFICIENTS

01.01.02 – Differential equations and mathematical physics

ABSTRACT OF DISSERTATION OF THE DOCTOR OF PHILOSOPHY (PhD) ON PHYSICAL AND MATHEMATICAL SCIENCES

TASHKENT– 2026

The theme of dissertation of doctor of philosophy (PhD) on physical and mathematical sciences was registered at the Supreme Attestation Commission at the Ministry of Higher education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan under number № B2025.4.FM/T1392.

Dissertation has been prepared at V.I. Romanovsky Institute of Mathematics.

The abstract of the dissertation is posted in three languages (Uzbek, English, Russian (summary)) on the website http://kengash.mathinst.uz and in the website of "ZiyoNet" Information and educational portal http://www.ziyonet.uz.

Scientific supervisor:	**Ashurov Ravshan Radjabovich** Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Professor
Official opponents:	**Durdiev Durdimurod Kalandarovich** Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Professor
	Baltaeva Umida Ismoilovna Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Professor
Leading organization:	**Fergana State University**

Defense will take place « 10 » February 2026 at 16:00 at the meeting of Scientific Council number DSc.05/2025.27.12.FM.11.01.M at the Institute of Mathematics named after V.I. Romanovsky. (Address: University str. 9, Almazar area, Tashkent city, 100174, Uzbekistan, Ph.: (99871) 207-91-40, e-mail: uzbmath@umail.uz, Website: www.mathinst.uz)

Dissertation is possible to review in Information-resource center at Institute of Mathematics named after V.I.Romanovsky (is registered № 220). (Address: University str. 9, Almazar area, Tashkent city, 100174, Uzbekistan, Ph.: (99871)-207-91-40).

Abstract of the dissertation sent out on « 23 » January 2026 year
(Mailing report № 2 on « 23 » January 2026 year)

U.A.Rozikov
Chairman of Scientific Council
on award of scientific degrees,
D.F.M.S., Academician

J.K.Adashev
Scientific secretary of Scientific Council
on award of scientific degrees,
D.F.M.S., Senior researcher

A.A.Azamov
Chairman of Scientific seminar under
Scientific Council on award of scientific degrees,
D.F.M.S., Academician

INTRODUCTION

Actuality and demand of the theme of the dissertation. In recent decades, fractional-order differential equations have been increasingly used as an important mathematical tool for modeling various anomalous processes. For this reason, many researchers have focused on developing new approaches to solving such equations and studying the qualitative properties of their solutions. On the other hand, for fractional-order differential equations, not only initial–boundary value problems but also inverse problems related to the determination of coefficients, source functions, boundary conditions, and the order of the fractional derivative are of great practical importance. This dissertation is devoted to the study of initial–boundary value problems for fractional-order differential equations and systems of equations, as well as inverse problems concerning the determination of the source function and the order of the fractional derivative for subdiffusion equations.

Along with studying methods for solving fractional-order partial differential equations, it is of significant importance to investigate inverse problems aimed at identifying the coefficients of the equation, its right-hand side, boundary functions, and the order of the fractional derivative. The study of inverse problems enables us to analyze, interpret, and control processes described by fractional-order equations. Inverse problems for determining source functions are closely related to practical needs in fields such as mechanics, seismology, medical tomography, and geophysics.Furthermore, inverse problems associated with identifying the order of the fractional derivative also have considerable practical significance in various applications. Such problems make it possible to determine the nature of the transport process in a system or medium, namely whether it corresponds to normal or anomalous diffusion. Therefore, problems of identifying the derivative order are widely applied in physics, biology, chemistry, hydrology, materials science, and financial mathematics, and they contribute to a deeper understanding of the internal structure of complex processes. The physical essence and practical relevance of these problems motivate their investigation across different scientific domains. Consequently, constructing solutions to direct and inverse problems for fractional-order equations constitutes a focused and important area of scientific research.

In our country, great importance is placed on the advancement of disciplines within the exact and natural sciences, such as mathematics, physics, biology, and geology. Particularly, fractional and partial differential equation theory development has been prioritized due to its essential role in understanding various phenomena in mechanics, electronics, control systems, physiology, and biological processes. Conducting research at the international level in these critical areas has been identified as a key priority in fundamental research[1]. Currently, progress in the theory of fractional and partial differential equations is pivotal to the successful implementation of this directive. Researchers in our country have made significant contributions to

